

JAHON QALBIDASAN - NAVOIY!

*TDTU 3-son akademik litseyi
o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Saidova Dildora*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosidan o'rin olgan uumuminsoniy g'oyalar, shoir g'azallari, ruboiy va tuyuqlari misolida talqin qilinadi. Ijodkorning badiiy mahorati uning asarlari tahlili orqali aks ettiriladi. Shoir g'azallarida tarannum etilgan mangulikka daxldor falsafiy fikr-mulohazalar keng yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: g'oya, talqin, tahlil, falsafiy yondashuv, badiiy mahorat, estetik ideal, poetik joziba, ijodkor fenomeni.

Adabiyot olamida o'zidan o'chmas nom qoldirgan yorqin siymo, noyob iste'dod sohibi Alisher Navoiy ijodiy merosidan o'rin olgan turfa asarlarda ijodkorning dunyoqarashi va estetik tafakkuri o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiy devonlaridagi g'azallarda va uning nasriy tarzda yaratilgan qator asarlarida bevosita ulug' mutafakkirning adabiy qarashlari bo'y ko'rsatib turadi. Shoir tomonidan qalamga olingan mavzular tarkibiga singdirilgan uumuminsoniy g'oyalar ushbu asarlarning umrboqiyiligini ta'minlaydi. O'z umrini xalq va yurtga bag'ishladi. U shoir adabiyotshunos, donishmand, tarixchi, tilshunos, o'zbek adabiy tiliga asos solgan, ilm-fan homiysi, donishmand ulkan san'atkor.

Insoniyatning madaniy rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining manglayiga yulduzday balqqan so'z san'atining eng yirik namoyondasi betimsol shoiridir. Dunyo tamaddunida so'z sehrini, qudratini jozibali baytlarda tasvirlab bergan mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning sultoni fasohat mulkining yaratuvchisidir. Bu mutafakkir 26035 ta bir martadan hisoblaganda so'zni o'z asarlarida jozibali qo'lladi. Bu ulug' amir din-u davlat homiysidir, shariat hamda millatning pushti panohi bo'lsa ko'ngil ahli uning chehrasida rahmat ma'nosini ko'rmishlar. Undan avval va undan keyin hach kim turkiy tilda she'rni undan keyin hech kim turkiy tilda she'rni undan ko'proq va undan yuksakroq yozolgan emas, ko'p va xo'p she'r aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan erdi. Haq so'zni ayturdir qo'rqmas erdi. Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Uning har xazinasi ming xazinadan a'lodur. Garchi Navoiyga o'zidagi ta'b quvvati va qobiliyati ko'pligi jihatidan har ikki nav, ya'ni turkiy va forsiy she'rlar muyassar bo'lsa-da uning o'tkir tabi forsiychadan ko'ra turkiychaga ortiqroq erdi.

Alisher Navoiy adabiy merosi bag'oyat keng ko'lamni tashkil etadi. Muallif o'z asarlarini yaratar ekan, davriylikdan chekinib, barcha zamonlarda ham dolzarblik kasb

etuvchu mavzularga yondashadi. Ularni yetuk tafakkuriga tayangan holda keng yoritadi. Shoir asarlarida ifodalangan ezgu g'oyalar uning hikmatlarida namoyon bo'ladi. Navoiy badiiy ijod olamida qalam tebratar ekan, bir qator go'zal asarlar yaratdi. Bu bebaho ijod namunalari uning nomini butun jahonga yoydi. Ta'kidlash joizki, Navoiy shaxsi bashariyat oldida ulug' ustoz sifatida e'tirof etishga arzigulik hilqatdir. Asarlari hamon o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan teran mazmun va umumbashariy g'oyalar uyg'unligi ijodkorning adabiyot olamidagi yuksak maqomini belgilaydi. Navoiy asarlari mutolaasi kishi ruhiyatiga ajib sokinlik, zavq bag'ishlaydi. Shoirning hikmatga yo'g'rilgan ijodini o'rganish jarayonida uning donishmandona falsafiylik aks etgan fikrlari ongimizga o'rnashib qoladi. Shoir she'riyati to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi mayoq kabi bizga o'zligimizni anglamoq va chin inson bo'lmoq yo'lini o'rgatadi go'yo. Alisher Navoiy asarlarida shoirning axloqiy qarashlari o'z ifodasini topgan va bu ijod namunalari o'z o'rnida muallifning shaxsiy fikr-mulohazalari, a'moli va dunyoqarashini, xarakterini namoyon etgan. Navoiy o'z asarlarida adabiyot zamiriga singib ketgan umumbashariy g'oyalarni mukammal yoritgan va keng targ'ib qilgan.

Agar hikmatga bo'lsa iltifoting,

Ki bo'lsun Nuh umricha hayoting. [Navoiy, 1968: 20].

Yuqorida keltirilgan baytda ham Alisher Navoiyning shaxsiy qarashlari aks etgan. Hikmat o'rganishga, umuman, ilm olishga ixlosi mavjud bo'lgan shaxslarga daho shoir Nuh umri kabi uzoq umr tilaydi va bu bilan o'zining ham hikmatga xayrixoh ekanligini izhor qiladi. Qisqagina misralar orqali insoniyatni ilm-ma'rifatli bo'lmoqqa chorlaydi.

Bu qalamga falakdan ofarinlar yog'ilsin ! Ulug' va buyuklarga berilgan ta'riflar bu buyuk mutafakkirni butun umur manguликka muhrladi .Alisher Navoiy ko'p qirrali san'atkor .U shoir sifatida qanchalik shuhrat topgan bo'lsa ,davlar arbobi ,tilshunos va adabiyotshunos sifatida ham shunchalik mashhur va taniqlidir . Navoiy ko'plab shoirlarning ,san'at ahlining homiysi ,ustoz edi. Zukko shoir ,donishmand inson sifatida o'zining lirik asarlarini so'zning noyob durdonalari bilan boyitdi .Faoliyati davomida asosiy e'tiborni komil inson masalasiga qaratdi .Alisher Navoiy islom dinini ta'limotini ,tasavvuf ilmini mukammal o'rgangan inson edi .U ijodida xudo ,payg'ambar ,xalifalar haqidagi qarashlarni ifodalab yozdi .U serqirra ijodkor adabiyotimiz tarixida kop'roq shoir sifatida mashhur.Navoiy juda erta yoshdan to umrining oxirigacha she'riyat bilan oshno bo'ladi .Shoir xalqimizning faxri iftixori ,bu merosning manguлиgi uning chuqur falsafiy ma'nodorligidadir .

Alisher Navoiy chin so'zning sohibqironi ,va qahramonidir. Navoiyning o'z umri va ijodining so'nggi zarrasigacha xalqiga hadya etgan bu qoldirilgan merosdan biror ta'ma kutmagan benazir shaxs,chinakam futuvvat egasidir .U ma'rifat maydonida O'zbek adabiy tilining asoschisi ,buyuk mutafakkir ,shoir ,olim ,musiqachi, rassom ,va

davlat arbobi ,donishmand ustozdir .O‘z zamonasini mashhur shoirlarini hayratga solib ,lol qoldirgan dahodir . Shu bois fidoyi shoir fursat va mablag‘ topildi deguncha xayr-sadaqaga ,oddiy odamlar turmush sharoitini yaxshilaydigan tadbirlarga e‘tibor qaratdi ,odamlarni rozi qilish ,ularga mehr ko‘rsatishni Ka‘ba ziyoratidan ustun qo‘ydi . Alisher Navoiy ijodi chin ma‘noda ma‘naviyat xazinasiga qiyoslanadi. U o‘z asarlarida insonlarni ilm-u hunar o‘rganishga da‘vat qiladi. ilmsiz va o‘rganishni istamaydigan kishilarning holi tang bo‘lishini ta‘riflaydi:

Kishi ta‘limdin topsa malolat,

Topar ilm ahli olinda xijolat. [Navoiy, 1968: 43].

Kishining salohiyatini oshiruvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi va ruhini uyg‘otguvchi omil bu ilmdir. Navoiy ta‘rificha, agar biror kimsa ta‘lim olishni o‘ziga malol keltiradi deb bilar ekan, u hech narsaga erishmaydi, balki ilmi kishilar oldida hamisha xijolatda qoladi. Shaxsning qalb ko‘zi ochilmog‘i, ongi uyg‘onmog‘i uchun ilm suv va havodek zarurdir. Ilmi inson hamisha elda aziz va tabarruk bo‘lg‘ay.

Har kishi komil erur, bas anga Haq bandalig‘i,

Mundin o‘zga ta‘mai kasbi kamol aylamangiz. [Navoiy, 2011: 106].

Yuqoridagi baytda o‘z-o‘zidan daho shoirning umri davomida amal qilib kelgan aqidasi aks etgan. Chinakam komil inson uchun Haqning oddiy bandasi bo‘lib yaralishning o‘zi bir saodat. Boshqa narsalardan ta‘ma qilmoq o‘rinsizdir. Inson neki ishga qo‘l urmasin, uni Tangri taolodan madad olgan holda qilmog‘i lozim. Bu yo‘lda o‘zgalardan yordam olmoqqa hojat bo‘lmas. Alisher Navoiy asarlarida ta‘magirlik eng yaramas illatlardan biri sifatida qaraladi. Shoirning o‘zi esa insonlarni bu illatdan uzoq yurishga chorlaydi.

Komillik darajasiga yetgan shoirning pandnomasi butun bashariyatning nigohida jonlanmoqda. U yaratgan asarlarning mazmunida insoniyat uchun hanuz jumboq bo‘lib kelayotgan savollarning javobi va hayot mohiyatiga oid purma‘no fikrlar majmuyi o‘z ifodasini topgan.

Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganish komillikka yetishishni maqsad qilgan insonlar uchun to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi ma‘rifat nurlariga intilish kabidir. Bu hikmatlar ziyosidan bahramand bo‘lgan qalb shoir asarlaridan zavq tuyadi, undagi umuminsoniy g‘oyalariga ergashadi, yaxshilikka yor bo‘ladi, o‘z umri davomida ezgulikni bosh mezon qilib oladi. Bunday darajaga yetmoqlik uchun hazrat Navoiyni anglamoq kerak, bu barhayot siymoning bitiklarini dilga jo qilmoq lozim. Zero, komillikning asl belgisi ezgulikka esh bo‘lmoqlikdir. Alisher Navoiy asarlari esa butun insoniyatga ezgulik taratayotgan badiiyat yodgorliklaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968. – Б.88.
2. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 408

3. Абдуғофуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. –Б. 184.
4. Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 256.